SPORTCHI TALABALARNI JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ergashov Bobirjon Dehqonboyevich - Guliston Davlat pedagogika insituti "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" kafedrasi dotsenti v.b. p.f.b.f.d.(PhD)
bobirjonergashov786@gmail.com

Annotatsiya: O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bulib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Shunday qilib, innovatsion faoliyat ta'lim-tarbiya jarayonida talaba va o'qituvchini hamkorga aylantiradi. Darsni qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, harakat, talaba, texnika sog'lom bola, o'qituvchi, talaba, sport.

Ta'limning samaradorligini oshirish va bilimlarni egallashlariga erishish, shaxsning ta'lim diqqat markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z soxasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashgulotlarni tashkil etishda foydalana oladigan o'qituvchilar kerak.

Buning uchun, barcha fan o'qituvchilarini innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashtulotlarda qo'llash malakalarini oshirib borish lozim. Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida

tashkil etilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ta’lim jarayonini o‘ta qa’tiy hamda murakkab talablar asosida yo‘lga qo‘yish zarurati kun tartibiga qo‘yilmoqda.

Murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayoni mohiyatini to‘laqonli anglay olgan, favqulotda ro‘y beruvchi vaziyatlarda xam yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal eta olish salohiyatiga ega bo‘lgan malakali mutaxassisni tayyorlash zaruriyati ta’lim jarayonini xam texnologik yondashuv asosida tashkil etish lozimligini takozo etmoqda. Jamiyatimizning xar bir fuqarosi, yangi zamonaviy asrida turar ekanmiz, ortda qolgan yillar qadrini va kelajak hayotining turli jabhalarini belgilab olishga urinishi tabiydir.

Talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har doim bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi; pedagogik va talabalarning xamkorligidagi faoliyatni doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi.

Jismoniy tarbiya darslarida texnik vositalardan foydalanib mamlaka-timiz sportchilari sport arenalarida erishgan ulkan yutuqlarini, qo‘llagan taktikasini, raqibni o‘rganish bosqichlari va olimpiyada o‘yinlaridagi ishtiroklarini ko‘rsatilsa dars jarayoni yanada samarali natija beradi. Ayniqsa, bu jarayonlarni jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari bergan izohlar bilan olib borilsa, qo‘llanilgan taktikalar o‘qituvchi tomonidan qaytadan izohlanib, qaytadan ko‘rsatilib berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mening fikrimcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o‘qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga xamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalaridan o‘qitish jarayonida, maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda ko‘llanilgan har bir ta’lim texnologiyam o‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, xar ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida talabalar mustakil fikrlab, ijodiy izlanib, tahlil etib, o‘zlari xulosa qila olsalar, o‘zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o‘qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu o‘qitish jarayonining asosi xisoblanadi.

O‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bulib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir talabaning faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi. Bu usullardan

foydalanganda bilim olish talaba uchun qiziqarli ma'lulotga aylanadi. Interfaol usullar qo‘llanilganda o‘qituvchilar, talabalar yordamida va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar. Talabalar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tashilotchilik, tajriba-sinovlar o‘tkazish asosida o‘zlashtiradilar.

Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlarga bo‘lingan holda ishlashadi. O‘quv topshiriqlari alohida bir talabaga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. Mikro guruhlarning har bir a'zosi topshiriqni bajarishda o‘z xissasini qo‘shishga xarakat qiladi.

Ma'naviyat harakatdagi jarayondir. Mustaqil fikrga ega bo‘lgan shaxs ma'naviyatini kamol toptirish, bizning milliy g‘oyamizga aylanmoqda. Ma'naviyatni shakllantirishga hamda yoshlarni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning ta'sir ko‘rsatish kuchi katta. Shuning uchun jismoniy madaniyatni xalq ruhiga va e'tiboriga mos holda tashkil etishimiz lozim. Bu jismoniy tarbiyani milliy ma'naviyatimiz ruhi bilan tushuntirish va o‘rgatish demakdir.

Sport bilan muntazam shug‘ullangan, sport musobaqalarida o‘z imkoniyatlarini namoyish qilib sport mahoratini oshirib kelayotgan yosh avlod har tomonlama komillikka erishishi shubhasiz. O‘zbekistan Respublikasi Prezidenti ta'biri bilan aytganda, bolalar va yoshlarning sport bilan ommaviy ravishda shug‘ullanishi ularning xarakterini toblaydi, kuchli, mard va jasur bo‘lib kamol topishiga xizmat qiladi, qat'iyatli, hayot sinovlari va qiyinchiliklarni mardona engib o‘tishga qodir insonlar etib tarbiyalaydi. Shu sababli ommaviy sport harakatini yanada kengaytirish, bolalarni sportga keng jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Shuni ta'kidlab o‘tish kerakki, sport bilan doim shug‘ullangan qizlar turmush qurgandan so‘ng bolalarini sog‘lom tug‘ilishida muammolar kuzatilmaydi, qolaversa onaning jismoniy tarbiya va sport sirlaridan xabari bo‘ladi va bolani qanday qilib tarbiyalashni, jismoniy mashqlarni qay tarzda qo‘llash sirlaridan bohabar bo‘ladi. Vaxolangki, sog‘lom onadan sog‘lom bola sog‘lom avlod shakillanishiga zamin bo‘ladi. Sport bilan shug‘ullanish sog‘lom bo‘lish va chiroyli qomatning garovidir. Agar farzandingiz sport va jismony tarbiya bilan tasdiqlangan me'yorlar bo‘yicha shug‘ullansa, unda bu farzandingizni hayotidagi juda katta foydali jihatlardan biri bo‘ladi. Sport bilan to‘g‘ri va tartibli shug‘ullanish insonni jismoniy va ma'nan sog‘lom qilib tarbiyalaydi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi, aqliy fikrlashni teran qiladi.

Mutaxassislarning fikiricha, yoshligidan suzishni o‘rgangan bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanish, bilimlarni tez o‘zlashtirishi kuzatiladi. Ko‘pchilik ota-onalar farzandlarini jizzaki bo‘lib qolayotganidan yoki uyqusini yaxshi emasligidan shikoyat qilishadi. Bunday paytda bolani suzishga qatnashtirish yaxshi samara beradi. Suzish bilan muntazam shug‘ullanish bo‘yi o‘sishiga yordam beradi, stress holatlariga chidamliligini oshiradi, modda almashinuvini tezlashtiradi. Bolada yurak, oshqozon-ichak, asab nafas tizimi va mushaklar faoliyatini mustahkamlaydi.

Sog‘lom avlod, barkamol vorislarni tarbiyalashda sport va ma’naviyat uzviylik, x,amox,anglik kasb etishi lozim. Ularni bir-biridan ajratmaslik, ayro x,olatda singdirmaslik kerak degan fikirdamiz.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, sog‘lom bola tarbiyasida sport va ma’naviyat masalalarini takomillashtirish, bu borada ota - onalar, mahalla, maktab va sport turlari bo‘yicha murabbiylar hamkorligi yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bulardi. Respublikamizda ilgari surilayotgan sog‘lom bola, har tomonlama barkamol avlod tarbiyalash masalasi uchun barcha birdek mas’uldir. Shu sababli yoshlar tarbiyasida jamiyatimiz aholisining barcha ko‘lamlarini keng jalb qilish kerakligini alohida aytib o‘tmoqichimiz.

Sog‘lom bola tarbiyasida sport va ma’naviyatni izchil, uzviy tarzda olib borish, ushbu vositalar imkoniyatlaridan to‘la foydalanish Vatanimiz buyuk kelajagini qurishda o‘z samarasini beradi

Sport musobaqalari jismoniy tarbiyaning eng qiziqarli shakllaridan biridir. Bu tadbirlar talabalar jamoasini qaror toptirish va mustahkamlashda, do‘stlik, o‘rtoqlik xissini tarbiyalashda bebaxo rol uynaydi va xarakat malakalarini shakllantiradi.

Jamiyat rivojlanishida yuzaga kelgan tarixiy vaziyat jamoatchilikning jismoniy tarbiya va sportni boshqarishda qatnashishi uchun aniq imkoniyatlar yaratdi, bu jismoniy tarbiya harakatini boshqarishda mustaqil boshqarish shaklini rivojlantirishga yordam berdi. Shunday tarzda boshqarishining jamoatchilik shakli paydo bo‘ladi, u hozirgi zamonda ham muhim axamiyatga ega. Jismoniy tarbiya va sport jamoatchilik shaklida ishlarni tashkil qilish shunday tavsiflanadi, u rahbar xodimlarning saylanishliligi, mustaqil faoliyat ko‘rsatishi, ixtiyoriyligi asosida olib boriladi, bu o‘z navbatida ijodiy tashabbuskorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Jamoatchilik jismoniy tarbiya tashkilotlari faoliyati kasaba uyushmalari boshqa jamoa tashkilotlari tomonidan bevosita boshqarilib turiladi.

Mustaqillik shakllarining funktsiyalari keng va xar tomonlamadir. Bu - yuqori darajada sportni rivojlanishi va takomillanishni ta’minlash, yuqori malakali sportchilarni tayyorlash, mehnat hamda dam olishni to‘g‘ri tashkil qilish, sog‘liqni mustahkamlash va ijodiy umrboqiylikni saqlash, yoshlarni sport turlariga jalb qilish va turli yoshdagi aholini jismoniy tarbiya mashgulotlarga jalb qilish va xokazolardir.

Xulosa qilib aytganda, shaxs ijtimoiy hayotda faoliyat ko‘rsatar ekan, u tashqi olam, ma’naviy hayot bilan doimiy ravishda uzviy munosabatda bo‘lish evaziga o‘zida badiy va estetik ko‘nikmalarni komil inson toyfasiga bog‘liq holda shakllantirib boradi.

Foyadalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

6. Amosov N.M. O‘qitishda zamonaviy axborot tenologiyalari. - M.: FiS, 2007 yil.
7. Ilyinich M.V. Axborot texnalogiyalari. - M., 2002 yil.
3. Акбаров А., Мусаев Б.Б., Спорт метрологияси, дарслик, Тафаккур қаноти нашриёти, 2014, 424 б., http://library.uzdjtsu.uz/files/pdf/Sport
4. Акбаров А., Спортда математик таҳлил усуллари, Чирчиқ, ЎзДЖТСУ, 2020, 228 б., http://library.uzdjtsu.uz/files/pdf/Sportda